

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

O'zbek tilining forsiy til bilan aloqasi xususida .....	387
<b>Г.И.Акрамова</b>	
Лингвокультурологический аспект изучения текста .....	391
<b>Н.М.Sotvaldieva</b>	
The importance of teaching english on little classes.....	395
<b>М.А.Khidirova</b>	
Study of hyponym and hyperonym characteristics of wild animal names in english and uzbek languages.....	399
<b>S.A.Aliyeva</b>	
Rus tilshunosligida geortonimlarning tadqiq etilishi .....	404
<b>K.B.Namozova</b>	
To'y marosimlari folklorini inglizcha tarjimalarini qiyosiy o'rganishda milliy-madaniy xususiyatlarning namoyon bo'lishi.....	408
<b>М.Т.Ишанханова</b>	
Бахс аль-Маталиб ва Хасс аль-Талиб – новый взгляд на составление сочинения по грамматике арабскому языку .....	416
<b>В.М.Хегай</b>	
Семантическая актуализация прецедентных текстов в интertextуальных заголовках печати .....	421
<b>N.D.Djalilova</b>	
The ways of improving speaking skills in esp classes (information technology) .....	426
<b>N.K.Ergasheva</b>	
Development and use of foreign languages .....	431
<b>М.Г.Хошимов</b>	
Типологический статус сложных предложений с адвербиальным компонентом финальности в языках разных систем .....	434
<b>М.А.Xolbekova</b>	
Foreign language and factors of its development.....	443

## RUS TILSHUNOSLIGIDA GEORTONIMLARNING TADQIQ ETILISHI

### ИЗУЧЕНИЕ ГЕОРТОНИМОВ В РУССКОМ ЛИНГВИСТИКЕ

### STUDY OF GEORTONYMS IN RUSSIAN LINGUISTICS

**Aliyeva Sarvinoz Abbasjon qizi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'onan davlat universiteti, tayanch doktoranti

#### *Annotatsiya*

*Mazkur maqola onomastika sohasi va uning hozirgi muhim tadqiqot manbasi bo'lgan geortonomlarning tahlil qiladi. Ushbu maqolada rus tilshunos olimlarning geortonimik birlklar yuzasidan olib borgan chuqr tadqiqotlari keltiriladi.*

#### *Аннотация*

*В данной статье анализируется область ономастики и георонимов, которые являются важным источником ее современных исследований. В данной статье представлены углубленные исследования геортонимических единиц российскими лингвистами*

#### *Abstract*

*This article analyzes the field of onomastics and geonyms, which are an important source of its current research. This article presents in-depth studies of georthonymic units by Russian linguists.*

**Kalit so'zlar:** onomastika, geortonimlar, bayramshunoslik, semantic va lingvokulturologik xususiyat, geortologiya, rus tilshunosligi.

**Ключевые слова:** ономастика, георонимы, праздниковедение, семантические и лингвокультурные особенности, геортология, русское языкознание.

**Key words:** onomastics, geortonyms, holiday names, semantic and linguocultural features, geortology, Russian linguistics.

## KIRISH

Jahon tilshunoslida onomastik tadqiqotlar bilan bir qatorda uning bir qismi bo'lgan geortonimlar, ya'ni bayram nomlari jahon tilshunoslar olimlari tomonidan atroflicha tahlil qilindi, kerakli ilmiy manbalar bilan boyitildi. Lekin nomshunoslik sohasining bayram nomlarini anglatuvchi geortonim tushunchasi yaqin yillarda paydo bo'lganligi sababli, antroponim yoki toponimlar kabi yirik monografik planda kamchilik tomonidan o'rganildi. Bir qator ingliz, rus, nemis, polsha va boshqa jahon xalqi olimlari geortonimlar yuzasidan o'zlarining qimmatli fikrlarini taqdim qila oldilar va ilmiy tahlillar bilan geortonimlar tadqiqini kerakli darajaga olib chiqsa oldilar.

Onomastik birlklardan antroponimlar, toponimlar, zoonimlar kabi geortonimlar malum bir atoqli otlar tizimini anglatadi va ilmiy manbalarda bir qator izohlar bilan yoritilgan.

Bayramshunoslik bilan aloqador terminlar bir qator tarixchilar, etnograflar madaniyatshunoslar va faylasuflar tomonidan o'rganilgan. Bayram ijtimoiy hodisa hisoblanib, vujudga kelish jarayonida madaniyat tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan ritual va mif shakllari bilan o'zaro aloqadordir.

Onomastikaga oid terminologik lug'atlarda har qanday bayram, festival, xotira kunlari va mana shunday marosim hamda tadbirlarning atoqli otlari geortonimlar (yunoncha *heortne* – geort, *onoma* – atoqli ot) deb qo'llaniladi hamda bayram va tantanalar ma'lum vaqtida, kunda nishonlanishiga ko'ra geortonimlar sirasiga kiruvchi onomastik birlklarning xrononimlar bilan bog'liqligi ta'kidlab ko'rsatiladi.

## ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Tarixan bayramshunoslik terminlari diniy bayramlarning shakllanishi va ulardan ijtimoiy-siyosiy turdag'i boshqa bayram nomlarining ajralib chiqishidan vujudga kelishni boshlagan. Dastlab diniy bayramlar asosiy nishonlanuvchi bayram nomlari bo'lganligi uchun eortologiya sohasi paydo bo'lgan. Ushbu sohaning muhim birlklari eortonimlar bo'lib, rus tilida yaratilgan ilmiy adabiyotlarda dinshunoslikda qo'llaniluvchi termin sifatida "cherkov bayramlarining atoqli otlari" ma'nosida qo'llaniladi.

A.Kiprian o'zining eortologiya, ya'ni cherkov bayram nomlari haqida asarida *liturgiya yo'nalishi* (bayram nomlari)ni ajratib ko'rsatish maqsadida fonetik strukturasiga o'zgartirilgan yunon

## TILSHUNOSLIK

tilidagi ёортή so'zini keltirib o'tadi. Tarixan eortologiya sohasi *gimnogram* deb ataluvchi til yo'nalishi (bayramlar tarixi va ularning kelib chiqishini o'rganuvchi qadimgi soha) bilan birgalikda *liturgiya* (Xudoga sig'inish, cherkov marosim va bayramlarini o'rganuvchi qadimgi fan) asosida yuzaga kelgan.

Bayramshunoslik bilan aloqador terminlar bir qator tarixchilar, etnograflar madaniyatshunoslari va faylasuflar tomonidan o'rganilgan. Bayram ijtimoiy hodisa hisoblanib, vujudga kelish jarayonida madaniyat tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan ritual va mif shakllari bilan o'zaro aloqadordir. Shu sababli bayram nomlarining paydo bo'lishi va tuzilish xususiyatlarini tahlil qilishda Levi-Stross, Yu.M.Boroday, L.Levi-Bryul, A.Gennep, D.Frezer, O.M.Freydenberg, L.A.Abramyan, V.Ya.Propp, A.K.Bayburin, Z.Freyd, M.Evzlin, K.Yunglar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ularning tadqiqot ishlarida bayram muammosiga psixoanalitika tomonidan e'tabor qaratilgan. Ular tomonidan taklif etilgan xulosalar bayramlarning kompensatorlik, ya'ni to'ldiruvchilik vazifasini asoslash uchun zaruriy manba deb qaraladi.

XX asr boshlarida onomastika sohasi rus tilshunosligini ham chetlab o'tmadi, aksincha ushbu millat bayramlari yuzasidan chuqur tahlil va izlanishlar olib borilishiga zamin yaratdi. Jahon tilshunosligida onomastika va onomastik birlıklar rus tilshunosligichalik boshqa xalqlarda yirik monografik planda o'rganilmaganligini e'tirof etish mumkin. Bunda nafaqat rus bayramlari, balki nemis, qalmiq, chek va boshqa millat bayramlari ham rus olimlari ilmiy izlanishlarida keng tahlil va xulosalar bilan yoritildi. Jumladan, Solovyeva T.V.Yudin N.Tixomirova S., Orlov O., Filatova E., Vanchenko T., V.A.Navasheva, Andreyeva O.S., E.Yu.Terentyeva, Puchkova I.N.Nikolayevna, Bugayeva I.V., Valentsova M.M., Vrublevskaya O.V., Xilova X.K., Olyadikova L.B., Polyakova Yu. va boshqa tilshunos olimlar onomastika va onomastik ko'lamma geortonimlarning tutgan o'rni, xususiyatlari, boshqa til birlıklari bilan qay darajada munosabatga kira olishi mumkinligini yirik monografik planda o'rgandilar, chuqur tahlillarni amalga oshirdilar.

Jumladan, nemis va qalmiq millati geortonimlari borasidagi milliy-madaniy nomlash muammolarini chuqur tahlil qilgan rus tilshunos olimi B.A.Navashevaning fikricha, qadimgi qalmiq xalqlarida yilning biron vaqt o'zgarsa, shu kunni bayram qilib nishonlayverishgan va shuning uchun ham qalmiq geortonimlarida temporal komponent mavjud bo'lib, to'liq geotonim mazmunidan tushib qoladi.

Rus tilshunosligining onomastik sohasida geortonimlarning leksik-semantik ko'lamenti birinchilardan bo'lib Andreyeva O.S. deyarli 1020 ta rus zamonaqiy bayram nomlari bilan monografik planda o'rganib chiqdi. U 170 ta geotonimik leksemalarni uch asosiy guruuhga: umum-Xristian, agrar va marosim-tantana; o'z navbatida, bularni 12ta tub guruuhchalarga ajratib tahlil qiladi.

Rus va bolgar xalqi provaslav geortonimlarining klassifikatsiyasi borasida yana bir mashhur rus tilshunosi E.Yu.Terentyeva lisoniy ilmda cherkov bayramiga beriladigan nomlarni geotonim deb atash lozimligini kiritdi. Uning tasnidida birinchi guruh cherkov dini timsollari bilan bo'lib, Yaratgan bilan bog'liq, Ayol ilohalar bilan bog'liq, Payg'ambarlar bilan bog'liq va aziz avliyolar bilan bog'liq geortonimlarga ajratadi. I.Puchkova tarkibida geotonimik birlıklar qatnashgan ingliz frazeologik birikmalarini semantik guruhlarga ajratadi va fazemalar takomili davomida semantik o'zgarishlarni 60 ga yaqin misollar holatida o'rganib chiqadi.

Onomastikada rus tilshunosi Tolstaya tomonidan "Yil bo'laklari va kunlarning nomi" deb ta'riflanadigan xrononim tushunchasi mavjud bo'lib, A.Superanskayaning bergen ta'riflari va N.Podolskayaning rus onomastik birlıklari lug'atidagi izohlar bilan o'zaro mutanosib holatda o'rganiladi.

Valentsova M. chek va slovak xalqining marosim va urf-odatlarini bildiruvchi terminlarni yirik monografik planda o'rganib, tahlil qilib chiqdi. Bu yo'nalishda chek va slovak marosim terminlari lug'atini va xrononimlar semantik lug'atini yaratdi, ushbu lug'atlarga asos bo'ladigan 2000ga yaqin maqola haligacha rus tilshunosida onomastika sohasi, bayram va marosim nomlari bo'yicha foydalananib kelinmoqda.

Onomastika sohasining geotonimik ko'lam yuzasidan chuqur izlanish olib borgan rus olimlaridan biri O.Vrublevskaya bo'lib, rus va nemis nomshunoslik manbalaridan foydalangan va geotonimik ko'lam ichida o'rganiluvchi "названия торжественных мероприятий", ya'ni tantanali hodisa nomlarini yirik monografik aspektida tahlil qiladi.

Onomastika sohasi va geortonimlar tadqiqi yuzasidan kerakli manbalarni to'plash maqdsadida turli lingvistik metodlardan foydalanildi. Jumladan, qiyosiy metod, tarixiy metod, lingvokulturologik metod, semantik metod kabilar kerakli ilmiy manbalarni tahlili uchun asos bo'lib xizmat qildi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tahlillar va natijalar shuni ko'rsatadiki, onomastika va geortonimlar tilni ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayot bilan bog'lash vazifasini bajaradi. Geortonimlarni tadqiq qilish orqali xalq hayoti, kishilar madaniy yashash tarzi, milliy urf-odatlari va bayramlari haqida to'laqonli ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Geortonimlar semantik xususiyatlari, leingvokulturologik vazifalarining tag zamirida mazkur xalq madaniy qiyofasi mujassam bo'ladi.

Falsafa yo'nalishida "Bayramning ijtimoiy mazmuni" masalasini N.Yudin o'rgangan bo'lib, uning ta'kidlashicha, "Bayram nafaqat ijtimoiy, balki uning o'ziga xos ijtimoiy samon/makon, ijtimoiy xronotop kabi shakllarni ham ifodalaydi. Bayram intensiv muloqot, muloqotlar majassamlashuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Bayramning ijtimoiy mohiyati shaxslararo va ijtimoiy muloqotni tashkil etishdan iborat. Bayram jarayonida shakllangan munosabatlar keyinchalik davom etadi". Shuningdek, N.Yudin kasb bayramlari, ayniqla, harbiy, dehqon kabi tayanch kasblarga bag'ishlangan bayramlar jamoani turli jihatdan jipslashtira olishini yozadi. Bunday xususiyat milliy bayramlarga ham tegishli hisoblanadi.

S.Tixomirova psixologiya sohasida "Zamonaviy Rossiya yoshlarida bayram haqidagi tasavvurlar dinamikasi (o'sishi)" masalasini tahlil qildi va bayram nomlari yuzasidan quyidagi fikrlarni berdi: "Yoshlarda bayramning yangi ritual shakllarini intensiv izlash bilan bir qatorda an'anaviy xalq madaniyati haqidagi tasavvur borgan sari qashshoqlashib bormoqda. Ta'kidlash lozimki, bunday holat madaniy urf-odatlar turli ijtimoiy bosqichlarda – ola, qishloq, shahar, respublika, maktab, mehnat jamoasi, sport jamiyati qo'llab kelinayotganligiga qaramay, Kavkaz xalqlarida ham, ruslarga nisbatan sekinroq amalga oshmoqda. Bayramni nishonlash ritualining o'zgarishi o'tkazish shakllarining kamayishida namoyon bo'ladi. Inson hayotining barcha bosqichlarida, ibtidoiy jamoadan boshlab, bayramning vaqt va maydoni ritual yordamida boshqarilgan. Ritual bayram qatnashchilariga shaxsiy erkinlik berish bilan bir qatorda, bayramga tayyorgarlik ko'rish, nishonlash jarayoni, bayramdan chiqish va bayramdan keying vaqtini o'tkazish ritual yordamida boshqarilgan. Ritual – marosimiy tamoyillar yig'indisi. Ijtimoiy o'zgarishlar bayram marosimlarini o'zgarishiga olib keladi".

V.A.Navasheva nemis bayramlarini *Weihnachten* (rus. Rojdestvo), *Fastnacht* (rus. Maslenitsa); *Neues Jahr* (o'zb. Yangi yil) kabi geortonimlar misolida vaqt indikatorlari, sinonimik qator, geortonimik qo'shimchalar orqali tahlil qiladi. Geortonimik struktura jihatidan nemis bayramlari 2 guruh orqali shakllanadi: a) kompozitsiya, ya'ni Christ bibliografik antroponim va diniy qo'shimcha -fest yoki -abend, -tag, nacht kabi vaqt indikatorlari bilan (*der Christabend, der Christtag, die Christnacht, Christfest*); b) vaqtini bildiruvchi *heilig* so'zi bilan (*der Heiligabend, die heilige Nacht* (o'zb. Rojdestvo kechasi)). Uning fikriga ko'ra qalmiq bayram nomlari bir va ikki komponentdan tashkil topsa, nemis geortonimlari deyarli barchasi sinonimik munosabat (*schmutziger Donnerstag / schmotziger Donnerstag* (o'zb. kir payshanba)) orqali aks ettiriladi.

Shuningdek, E.Yu.Terentyeva ilmiy maqolasida geortonimlar tarkibida qisqarishni anglatuvchi "**reduksiya**" terminini izohlaydi. Bunga misol tariqasida, rus xalq bayrami *Антон* (*Антон-перезимник*; kalendar bayram sifatidagi nomi *Антона Великого*), *Федул* (*Федул-вятреник*; kalendar bayram nomi. *Феодула*); bolgar xaql bayrami *Ермия / Ирима* (kalender bayram nomi *Еремия*), *Гергъовден / Гергевден / Гъргъовден* (*Георгиантропонимining reduksiyalashuvidan*), *Голяма Бугройца* (*календ. — Успенена Пресв. Богородица*). Keyingi o'rnlarda bunday holatni **geortonimik reduksiya** deb qo'llash ham mumkin, sababi bu aynan geortonimik birliklar tarkibidagi sodir bo'ladigan qisqarish holatini bildirish mazmunida kelganligi sababli. Yuqoridaq termin qo'shimcha ravishda E.Y.Terentyeva **geortonimik formula** tushunchasini kiritadi va ushbu struktura quyidagi kategoriyalarga amal qilishi lozimligini ta'kidlaydi: a) geortonim tarkibidagi o'zaklarning bir-biri bilan leksik-semantik munosabatga kirishi; b) doimiy birga keladigan indikatorga ega bo'lishi; c) talaffuz normalarga amal qiladigan so'z yasalish usuliga ega ekanligi.

**XULOSA**

Geortonimlar va ularning onomastik ko'lamdagi ahamiyati yuzasidan jahon tilshunosligida so'nggi yillarda minglab qimmatli ishlar olib borildi. Ularning etimologiyasi, leksik-semantik xususiyatlari va xalqlar madaniyatini qay tarzda ko'rsatib berishi, boshqa til sohalari, masalan, liturgiya, eortologiya, lingvokulturologiya, frazeologiya, morfologiya va boshqa yo'lanishlar bilan qay darajada aloqaga kirisha olishi yirik monografik planda o'rganildi, chuqur tahlil etildi, qimmatli xulosalar, zarur misollar va yangi tushunchalar bilan boyitildi. Fikrimizcha, jahon tilshunosligi ichida rus tilshunos olimlari anchagina keng va chuqur izlanishlari bilan onomastika, onomastik birlik va uning mikroko'lami bo'lgan geortonimlarni alohida o'rganilishi lozim bo'lgan lingvistik fan doirasiga olib chiqa oldilar. Ularning amalga oshirgan ulkan ilmiy ishlari onomastika va geortologiya sohasining rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ванченко Т.П. Культуролого-антропологические основания праздника: семантико-семиотические аспекты: Автореф. док.. философ.наук. – Тамбов, 2009.
2. Врублевская О.В. Названия торжественных мероприятий: pragmalingvisticheskiy aspect (na material'e russkix i nemetskix nominationej): dis. ... kand. filol. nauk. – Volograd, 2006
3. В.А.Навашева, Особенности номинации народных праздников в калмыцком и немецком языках, Вестник Дагестанского государственного университета. Серия 2. Гуманитарные науки. 2016. Том. 31. Вып. 2 DOI: 10.21779/2542-0313-2016-31-2-49-54.
4. Киприан (Керн), архим. Литургика. Гимнография и эортология. М., 1997
5. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. М., 1973.
6. Тихомирова С.В. Динамика социальных представлений о празднике у современной российской молодежи: психологический наук. – Москва, 2008.
7. Орлов О.Л. Российский праздник как историко-культурный феномен: Автореф. дис... доктор. культуро... наук. – Санкт-Петербург, 2004.
8. Пучкова Ирина Николаевна, СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНГЛИЙСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ГЕОРТОНИМОМ, К.филол.н., доцент, Московский городской педагогический университет, Журнал «Современная наука: актуальные проблемы теории и практики», Серия: Гуманитарные науки №6-2 июнь 2020 г.
9. Олядыкова Л.Б. Буддийские термины в русском языке (геортонимы, теонимы) // Материалы научной конференции «Значение и роль буддизма в цивилизованном пространстве современной культуры» «Буддийская культура и мировая цивилизация». – Элиста, 2003. – С. 60–69.
10. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии / Отв. ред. А. В. Суперанская. М., 1978
11. Полякова Ю. Религионимы со значением 'осенний праздник' в русском и польском языках, Ученые записки Таврического национального университета имени В. И. Вернадского Серия «Филология. Социальные коммуникации». Том 25 (64). № 4, ч. 2. 2012 г. С. 551–556. УДК 811.161.1' 37 "382": 296.36